

ORIENTAL JOURNAL OF ENGINEERING AND MODERN TECHNOLOGIES

Open Access, Peer Reviewed Journal


Scientific Journal


- **Civil**
- **Robotic**
- **Material**
- **Chemical**
- **Computer**
- **Electrical**
- **Mechanical**
- **Agricultural**
- **Manufacturing**



AI



 xomidovanvarbek07@gmail.com

 www.innoworld.net

 +998 94 5668868



SHAHRIHON SHAHAR AVTOSHOXBEKATIDA YO'LOVCHI TASHISH INTELEKTUAL TRANSPORT TIZIMIDAN FOYDALANISHNI BAHOLASH

Usmonov Azizbek XXX

Andijon mashinasozlik instituti, "Avtomobilsozlik va transport"
fakulteti, "Transport logistikasi" yo'nalishi 3-kurs talabasi

Telefon: +9989999937328

E-mail: sr4usmanov9717@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda Shahrixon shahar avtoshoxbekatida yo'lovchi tashish intellektual transport tizimidan foydalanishni baholash hamda undagi kamchiliklar, va shu yo'nalishdagi muammolar haqida bir nechta dasturlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *Inftuzilma, kompleks rivojlantirish, rekonstruksiya, avtosatnsiya, konsepsiya, dispatcherlik.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-son Farmoni ijrosini ta'minlash, shuningdek, yo'l harakatini tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish, avtomobil yo'llari infratuzilmasini rivojlantirish va yo'l harakati ishtirokchilari uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida: yo'l infratuzilmasini takomillashtirish va xavfsiz harakatlanish sharoitlarini yaratish orqali yo'llarda avariya va o'lim holatlarini keskin qisqartirish, shu jumladan harakatni boshqarish tizimini to'liq raqamlashtirish va jamoatchilikning ushbu sohadagi ishlarda keng ishtirokini ta'minlash maqsadida quyidagilarni nazarda tutuvchi 2022-2026-yillar davomida respublika hududida amalga oshirilishi mo'ljallangan "Xavfsiz va ravon yo'l" umummilliy dasturi (keyingi o'rinlarda — Dastur) ilovaga muvofiq tasdiqlangan [1]. Dasturga asosan:

- avtomobil yo'llari infratuzilmasini kompleks takomillashtirish;
- avtomobil yo'llarida harakatni boshqarish tizimini raqamlashtirish;
- jamoat transportini rivojlantirish va raqamlashtirish;
- yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish, bolalarga yo'l harakati qoidalarini amaliy o'rgatishni yo'lga qo'yish;
- haydovchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda transport vositalarining texnik holati ustidan nazoratni kuchaytirish belgilab olingan.

Xususan, jamoat transportini raqamlashtirish va rivojlantirish Andijonda:

- avtobus oraliq bekatlarini qurish va rekonstruksiya qilish;
- avtovokzal va avtostansiyalar qurish va rekonstruksiya qilish;

- jamoat transporti yo'nalishlarini avtomatlashtirilgan dispetcherlik xizmatiga o'tkazish;

- yangi jamoat transporti yo'nalishlarini tashkil qilish belgilab olingan.

Andijon viloyati Respublikamizning eng aholi zich joylashgan maskani hisoblanadi. Viloyatda jamoat transportini rivojlantirishda aholiga sifatli arzon transport xizmatini amalga oshirish ishlari amalga oshirilmoqda. Albatta viloyatda aholiga transport xizmati ko'rsatishda birgina jamoat transporti emas balki uni tashkil etuvchi infratuzilma ham muhim omil hisoblanadi.

Bugungi kunda viloyatda 1 ta avtovokzal 16 ta avtostansiya mavjud. Avtovokzal Andijon shahar hududida joylashgan. Avtostansiyalar viloyatni har bir tuman markazi bilan bog'lab turadi. Viloyatda iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan Andijon hamda Asaka tumanlaridan keyingi o'rinda Shaxrihon tumani turadi. Tuman aholisi viloyat aholisining 9,5 % ni tashkil etadi.

Tumanda Shahrixon, Yangi bozor, Mustaqillik avtostansiyalari mavjud. Tumanda umumiy 23 ta yo'nalish mavjud bo'lib, u 6 tasi avtobus yo'nalishida va 17 tasi esa taksi yo'nalishida qatnovlarni amalga oshiradi [2].

ITT - bu ko'plab transport tizimlari va transport vositalarini yuqori texnologiya va ma'lumotlar bilan birlashtirgan yo'lning samaradorligi va xavfsizligini oshirish, keyin esa uni ilmiy jihatdan ishlatish uchun harakatlanish tizimi. ITT avtomobillarni boshqarish, to'lovlarni to'lash, tezlikni nazorat qilish va to'xtash joyi kabi ko'plab sohalarda qo'llanilmoqda. Shu qatorida keng foydalanayotgan tizimlar quyidagilar:

- BIS (Bus information system) Avtobus axborot tizimi;
- AFC(Automatic fare collection) Yo'l haqini avtomatik yig'ish;
- ETCS(Electronic tool collection system) Elektron asboblarni yig'ish tizimi;
- ATES(Automatic traffic enforcement system) Avtomatik yo'l harakati xavfsizligi tizimi;
- PIS(Parking information system) Mashinalar haqida ma'lumot tizimi;
- NTIC(National traffic information center) Milliy yo'l harakati axborot tizimi;
- C-ITS(Cooperative ITS) Kooperativ ITT[3].

Bu tizimlarning samarali tomoni shundaki yuqorida ko'rsatilgan barcha tizimlar yo'lovchi tashish yuzasidan keng foydalanish hamda tashish jarayonida yuzaga keladigon muammolarni o'rganish va buni kamchiliklarni bartaraf etish muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sohibjon o'gli, S. J. (2024). O 'ZBEKISTONDA INTELLEKTUAL TRANSPORT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 15(4), 9-14.

2. Rafiqjon o'g'li, R. R., & Zakirovich, N. I. (2024). ELEKTROBUSLARNI JORIY ETISHDAGI ENERGIYANING TEJALISHI. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 4(39), 170-175.

3. Rafiqjon o'g'li, R. R. (2024). ANDIJON VILOYATI YO 'LOVCHI TASHUVCHI AVTOTRANSPORT KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO 'LLARI. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, 2(4), 20-24.

4. Shavkatjon o'g, T. U. S., & Rafiqjon o'g'li, R. R. (2024). SERQATNOV KOCHALARDA TRANSPORT VOSITALARINI HARAKATINI TARTIBGA SOLISH. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, 2(4), 10-19.

5. Raximov, R. R., & Dexqonov, I. S. (2024). YO 'LOVCHILAR OQIMI VA YO 'LOVCHILAR OQIMINI O 'RGANISH USULLARI. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, 2(4), 4-9.

6. Rafiqjon o'g'li, R. R., & Sohijon o'gli, S. J. (2023). ANDIJON SHAHRIDA JAMOAT TRANSPORTI MUAMMOLARI. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 10(6), 153-157.

7. Sohijon o'gli, S. J., & Rafuiqjon o'g'li, R. R. (2023). TRANSPORT LOGISTIKASI TIZIMINI TASHKIL ETISHNING IQTISODIY AHAMIYATI. *TADQIQOTLAR. UZ*, 25(1), 79-83.

8. o'g'Li, R. R., & o'g'Li, S. J. S. (2023). *Logistika Tiziming Transport Toshqil Etuvchisi. Ta'limdagi Zamonaviy Muammolar Va Ularning Ilmiy Yechlari*, 7 (7), 27-33.

9. Raximov, R. (2023). AVTOMOBILLARGA TEXNIK XIZMAT KO 'RSATUVCHI USTAXONASINI JORIY ERISH AFZALIKLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(1), 280-290.

10. Raximov, R., & Daminov, D. (2023). Transport Vositalari Detallari Resurslarini Kompyuterda Hisoblash. *Modern Educational System And Innovative Teaching Solutions*, 2(2), 75-82.